

ADABIY TANQIDCHILIKDA MODERNIZM HAQIDA BAHSLAR

Otaqulova Dildora Oybek qizi

TerDU o'zbek adabiyotshunosligi 2-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek tanqidchiligida modernizm masalasining o'rganilishi, bu borada munaqqidlarning bahslarga munosabati o'rganiladi. Modernizmning o'zbek adabiyotidagi tadqiq etilishi, modernizm namunalari tahlili orqali yoritib beriladi.

Tayanch so'z va iboralar: modernizm, adabiy tanqid, bahs, metod, janr, nasr, roman.

Abstract: This article examines the question of modernism in Uzbek criticism, and examines the attitude of critics to the debates in this regard. The study of modernism in Uzbek literature is explained through the analysis of examples of modernism.

Key words and phrases: modernism, literary criticism, debate, method, genre, prose, novel.

Istiqlol davrida tanqidchiligimiz janrlari takomillashib, hozirgi adabiy tanqidchiligida bahs janri orqali dolzarb masalalar, jumladan, modernizm masalasi ham ko'tarib chiqilmoqda. Ma'lumki, modernizm "Adabiyotshunoslik lug'ati"da mazkur tushuncha shunday izohlanadi: "Modernizm (fr. modeme - eng yangi zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi"[1;176]. O'zbek adabiy tanqidchiligida o'tgan asrning 90-yillar oxiri – XXI asrning ilk yillarida modernizm adabiyoti, uning g'oyaviy-estetik xususiyatlari, o'zbek adabiyotidagi o'rni kabi masalalarda bahs-munozaralar jadal kechdi. Ma'lumki, bahs adabiy tanqidning barcha janrlari qatori o'ziga xos xususiyatlarga ega janr sanaladi. Bahs janrida ko'pincha, badiiy asar yoki aniq bir mavzu ob'ekt qilib olinadi va boshqa

maqolalardan farqli ravishda bahs davomida qarashlar kengaytiriladi, fikrlar xilma-xilligi oshib boradi, ba'zan rad etiladi, ba'zan qo'llab-quvvatlanadi. Mazkur janrni "tanqidning *adabiy muloqotga asoslangan janrlar*: adabiy-tanqidiy maktub va adabiy-tanqidiy suhbat"[2, B.32] kabi janrlari bilan bir guruhga tasniflash mumkin. Chunki bahs janri ham bahs, tortishuvga asoslanib, unda ham ikki va undan ortiq mutaxassislarning muloqoti amalga oshiriladi. Bahsda boshqa janrlarga nisbatan ikki va undan ortiq tanqidchi, yozuvchilar qatnashishi va eng muhimi, bahslashish asosida ma'lum bir xulosalarga kelish mumkin. Ba'zan esa bahs yillar davomida davom etishi mumkin. Ma'lumki, Istiqlol davri o'zbek adabiy tanqidligi modernizm yo'nalishi borasida turli ilmiy bahslar, qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Istiqloldan keyingi yillarda jahon adabiyotiga keng yo'l ochildi. Jahon adabiyoti, falsafasi, estetikaning sara namunalari tarjima qilindi. Modernizmning nazariy asoslari bilan bog'liq adabiyotlar chop qilindi, dissertatsiyalar himoya qilinib kelinmoqda. Shunga qaramasdan modernizm borasidagi bahs adabiy tanqidda hamon davom etmoqda. Shunday bahslar sirasiga B.Sarimsoqovning "Absurd ma'nisizlikdir" (O'zAS. 2002. 28-iyun.), P.Qodirovning "Modernizm, ma'naviyat va absurd" (O'zAS. 2004. 26-mart), E.Ochilovning "Siz she'r aytasizmu yo odam qo'rqtasiz?", Q.Yo'ldoshning "Tishing o'tmasa, tosh chaynama", (O'zAS. 2004. 17 sentyabr). U.Normatov, U.Hamdamning "Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji", Q.Yo'ldoshevning "O'zbek modern adabiyoti: ildizlar, prinsiplar va xususiyatlar" (Filologiya masalalari. 2004. 2-3-sonlar) kabi ilmiy maqolalarni kiritish mumkin. Ushbu bahslarda modernizm va uning ko'rinishi bo'lgan absurd adabiyotining milliy adabiyotimizda ham shakllanishi, namunalari borligi chuqur tahlil qilinadi. Adabiyotshunos, taniqli munaqqid Umarali Normatovning Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", "Sarob" asarlarida absurd tuyg'usi mavjudligini e'tirof etgan maqolalarida modernizmning dastlabki ko'rinishlari haqida munosabat seziladi. Munaqqid Qurdoş Qahramonov "Absurd faqat ma'nisizlikmi? Yoxud modernizm va uning oqimlariga doir bahslar xususida" ("Sharq yulduzi" jurnali 2009. 2-son) nomli maqolasida modernizm atrofidagi bahslarga munosabatlar bildirilgan.

Taniqli tarjimon va munaqqid Ahmad Otaboyev ham bu borada bir necha chiqishlar qildi. Shoir Bahrom Ro‘zimuhammad esa Faxriyorning modernizm asosida yaratilgan “Ayolg‘u” dostoni haqida fikr bildirilgan. Istiqlol davri tanqidchiligida she‘riyatda modernizm masalasidagi turli bahslarga olim Ozod Sharafiddinovning munozarali maqolasi turtki bo‘ldi. U XX asrning 60-yillarida “She‘r ko‘p, ammo shoir-chi?” degan maqolasida yoshlar she‘riyatini tahlil etadi va ayrim she‘rlarga munosabatida bahsli muammolarni o‘rtaga tashlaydi. Ushbu maqola ta‘sirida keyingi yillarda adabiyotshunos Ergash Ochilning “Shoir ko‘p, ammo she‘r-chi” deb nomlangan bahsli maqolasi e‘lon qilindi[3]. Taniqli olimlar U.Normatov va U.Hamdanning “Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji” nomli adabiy-suhbatida ham bahs orqali bu yo‘nalishning XX asr jahon adabiyotidagi mavqei, o‘zbek adabiyotidagi ko‘rinishlari, tadriji xususida to‘xtalib o‘tilgan[4:137]. Modernizm haqidagi qarashlarda Q. Yo‘ldoshevning ham maqolalari chuqur va teran fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi. Olim “Asl badiiylik hech qachon ommaviy bo‘lmagan. Bunday san‘at hammaga tushunarli ham, hammaga ma‘qul ham bo‘lolmaydi. Sho‘roviy mafkura ta‘sirida san‘atga san‘at deb emas, balki hayotning davomi, uning qismi deb qarashga odatlanilgan. Endi hayotga o‘xshamaydigan, uni aks ettirmaydigan, balki o‘z holicha yangi estetik hayot sanaladigan chinakam san‘at asarlari yaratila boshlandi. Buning uchun ijodkorlarda eksperimentlar qilish, sinovlar o‘tkazish, izlanish, xatolar qilish va ularni to‘g‘rilash imkoni bo‘lishi kerak” deb hisoblaydi. Istiqlol adabiyotining estetik qarashlariga mos modernizm – Rauf Parfi, Usmon Azim, Xurshid Davron, B.Ro‘zimuhammad, Faxriyor, A.Qutbiddin, Salim Ashur, Go‘zal Begim kabi shoirlar, Xurshid Do‘stmuhammad, Murod Muhammad Do‘st, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldoshev, Isajon Sulton va boshqa nosirlar ijodida namunalar kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiy tanqidchiligida modernizm haqidagi bahslarda uning nazariy jihatlariga asoslanib, bugungi o‘zbek she‘riyatining xususiyatlari namyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro'uxati:

1. Адабиётшунослик луғати./ Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Тошкент. Академнашр. 2010. – Б.176.
2. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. ф.ф.д....дисс. Тошкент. 2008. – Б. 32.
3. Очилов Э. Шоир кўп, аммо шеър-чи?// ЎзАС, 1998, ноябрь
4. Намдамов У. Modernizm va postmodernizm. – Toshkent: “Akademnashr”. – 2020. – В. 137.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 2006. – В.168-169.